



## XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMAN KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 24 - may

I-58-94-14-220-K/23

Yangi Hayot tuman hokimligi

### **Yangi Hayot tumanida sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 12-noyabrdagi PF-6110-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 25-maydagi PQ-5124-son, "Endokrinologiya xizmatini takomillashtirish va ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 26-yanvardagi PQ-102-son va "Yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va davolash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 26-yanvardagi PQ-103-son, "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4890-son va "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 25-apreldagi PQ-215-son qarorlarining ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari Yangi Hayot tuman Kengashi,

### **QAROR QILADI:**

1. Yangi Hayot tumani tibbiyot birlashmasi boshlig'i (Sh.Mamadaliyev)ning "Yangi Hayot tumanida sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar masalalari bo'yicha o'rinbosari (M.Kamilov) va tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i (Sh.Mamadaliyev)ga:

"Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yilida tibbiyot yo'nalishida aholini ijtimoiy himoya qilish va salomatligini saqlash bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash;

joriy yilning 1-iyuldan boshlab Toshkent shahrida tibbiy sug'urta tizimi joriy etilishini inobatga olib, tibbiy sug'urta tizimini tumanda to'laqonli amalga oshirishda barcha belgilangan mexanizmlardan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish;

tuman tibbiyot birlashmasi tasarrufidagi muassasalarda raqamlashtirish ishlarini sifatli yakuniga yetkazish va to'liq ishga tushirish;

inson salomatligi tibbiyotning zamini bo'lganligi bois, tumandagi barcha mahallalarda "To'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi" yangi umummilliy harakatini targ'ib etish;

tumanda tibbiy yordam sifatini va imkoniyatini oshirish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarni profilaktikasi va ular bilan kurashishni ta'minlash;

oilaviy poliklinikalarning ish samaradorligini baholash bo'yicha joriy etilgan yangi reyting tizimida yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlash;

Yangihayot tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi bilan hamkorlikda tuman tibbiyot birlashmasi tasarrufidagi muassasalarning vakant bo'sh o'rinlariga malakali mutaxassislarni jalb etishda ishonchli va samarali choralarni qo'llash;

jismoniy va yuridik shaxslardan, sog'liqni saqlash sohasi bo'yicha kelib tushgan murojaatlarni to'la o'rganib, belgilangan muddatlarda ijobiy hal etilishini ta'minlash;

tibbiy muassasalarda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha muntazam ravishda tadbirlar uyushtirish, korrupsiya holatlarining oldini olish uchun barcha kuchlarni safarbar etish hamda bunday holatlarga yo'l qo'yilganda jinoiy javobgarlikka tortilishi to'g'risida xodimlarni qat'iy ogohlantirib borish;

mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar, kiritilayotgan yangiliklarning mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish va tumanda soha bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ochiq muloqotlar, davra suhbatlari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar orqali muntazam yoritib borilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

### 3. Yangihayot tumani tibbiyot birlashmasi boshlig'i Sh.Mamadaliyevga:

oilaviy poliklinikalar hamda oilaviy shifokor punktlari mudirlari mahalla fuqarolar yig'inlarida hisobdorligini inobatga olib, oilaviy poliklinikalar mudirlarining belgilangan muddatlarda, qonunchilikka muvofiq, mahalla fuqarolar yig'inlarida hisobot berishini tashkillashtirish;

xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan belgilangan topshiriqlar ijrosi hamda soha bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot taqdim etib borish ta'minlansin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari

bo'yicha doimiy komissiya (I.Yuldasheva) va Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiya (U.Nishanbekova) zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Yangiayot  
tuman Kengashi raisi**



**X.Inogamov**